

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.B.11.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

JUMAQULOVA GO‘ZAL SAYFIDDIN QIZI

**BIOLOGIK FAOLLIKKA EGA BO‘LGAN TO‘QIMALI
BIOSTIMULYATORLARNI ORGANIZMGA TA’SIRI VA ULARNING
IMMUNOLOGIK SOLISHTIRMA KO‘RSATKICHLARI**

03.00.08 – Odam va hayvonlar fiziologiyasi

**BIOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Jumaqulova Go‘zal Sayfiddin qizi

Biologik faollikka ega bo‘lgan to‘qimali biostimulyatorlarni organizmga ta’siri va ularning immunologik solishtirma ko‘rsatkichlari..... 5

Жумакулова Гузал Сайфиддин кизи

Влияние биологически активных тканевых биостимуляторов на организм и их сравнительные иммунологические показатели..... 23

Jumakulova Guzal Sayfiddin kizi

The effect of biologically active tissue biostimulants on the body and their immunological comparative indicators..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.B.11.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

JUMAQULOVA GO‘ZAL SAYFIDDIN QIZI

**BIOLOGIK FAOLLIKKA EGA BO‘LGAN TO‘QIMALI
BIOSTIMULYATORLARNI ORGANIZMGA TA‘SIRI VA ULARNING
IMMUNOLOGIK SOLISHTIRMA KO‘RSATKICHLARI**

03.00.08 – Odam va hayvonlar fiziologiyasi

**BIOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/B1565-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kaxorov Bolta Abdugafarovich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ergashev Norali A'zamovich
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Shaxmurova Gulnora Abdullayevna
biologiya fanlari doktori, professor


Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi Ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.B.11.06 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "12" 04 soat 19⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04; faks: (+998 75) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti, 3-qavat, faollar zali.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (352 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "6" 04 kuni tarqatildi
(2026-yil "6" 04 da "13" -raqamli reyestr bayonnomasi).



I.H. Yoziyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, biologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Samatova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, biologiya fanlari nomzodi, professor

Sh.S. Xushmatov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda aholi sonining ortishi, oziq-ovqat mahsulotlari, ayniqsa, chorvachilik mahsulotlariga talab keskin oʻsishi sharoitida mahsuldorlikni oshirishda sintetik biostimulyatorlardan keng foydalanish oqibatida chorva hayvonlari organizmida moddalar almashinuvi buzilishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, chorva hayvonlari organizmining oʻsish-rivojlanishdan orqada qolishi, chidamlilik darajasini susayishi oziq-ovqat yetishmovchiligi muammosiga olib kelmoqda. Shunga koʻra, hayvonlar immunitetini tabiiy usullar bilan mustahkamlash orqali mahsuldorlik va oziqlanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida rivojlangan ilmiy-tadqiqot markazlarida hayvonlar ratsionini ular immun tizimiga, gematologik koʻrsatkichlariga taʼsirini tadqiq etish asosida mahsuldorlikni oshirish yoʻnalishida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, chorvachilik amaliyotida biostimulyator preparatlardan keng foydalanish imkoniyatlarini fiziologik asoslash, biostimulyator preparatlarning chorva hayvonlarida chidamlilik darajasini oshiruvchi, oʻsish-rivojlanishini stimullovchi taʼsir mexanizmlarini aniqlash masalalariga eʼtibor qaratilmoqda.

Respublikamizda chorvachilik sohasida yuqori samarali, qoʻshimcha nojoʻya taʼsirga ega boʻlmagan biostimulyator preparatlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Yangi Oʻzbekistonning 2022–2026-yillarga moʻljallangan Taraqqiyot strategiyasida, “...aholi salomatligini saqlash, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish” yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan¹. Ushbu vazifalarni bajarishda, biostimulyator preparatlarning chorvachilik hayvonlari mahsuldorligiga taʼsir mexanizmlarini aniqlash, samarali preparatlarni amaliyotga joriy etishni ilmiy asoslash katta ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi PF–5696-son “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Farmoni, 2022-yil 8-fevraldagi PQ–120-son “Oʻzbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish boʻyicha 2022–2026-yillarga moʻljallangan dasturni tasdiqlash toʻgʻrisida” qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-noyabrdagi 905-son “Veterinariya dori vositalari va ozuqa qoʻshimchalarining xavfsizligi toʻgʻrisidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida” qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022–2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон Фармони // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://lex.uz/docs/5841063>. Дата обращения: 18.10.2025.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Chorvachilik hayvonlari mahsuldorligini oshiruvchi biostimulyator preparatlarni yaratish va ularning taʼsir samaradorligini ilmiy asoslash yoʻnalishida dunyoning koʻplab ilmiy markazlarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Biostimulyator preparatlardan chorvachilik amaliyotida foydalanish samaradorligi, biostimulyator preparatlarning taʼsir mexanizmlari, ulardan foydalanish istiqbollari xoriyda R.B.Thompson (1952), R.W.Steele va boshqalar (1977), G.C.Rinaldi va boshqalar (1985), A.A.Karelin va boshqalar (1998), L. Xu, D.Geelen (2018), Y.Zou va boshqalar (2021), A.Srivastava va boshqalar (2024) tomonidan tahlil qilingan.

MDH miqyosida E.N.Skovorodin va boshqalar (2018), E.PDementev va boshqalar (2018), I.A.Pushkarev va boshqalar (2021), V.N.Makarova va boshqalar (2021), G.Bazekin va boshqalar (2021) tomonidan chorvachilikda biostimulyator preparatlardan foydalanish hayvonlarning turli stress-omillar taʼsiriga chidamlilik darajasini oshirishi, immun tizimi funksional faolligini optimallashtirishi, oʻz navbatida sut-goʻsht mahsuldorligi koʻrsatkichlariga ijobiy taʼsir koʻrsatishi qayd qilingan. R.R.Sultanova va boshqalar (2019) tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda sigirlarda laktatsiya davrida biostimulyator preparatlar taʼsirida sutning fizik-kimyoviy xossalari optimallashtirishi qayd qilingan. X.Z.Valitov, A.I.Frolkin va boshqalar tomonidan (2007, 2020) qoramollarda ozuqa ratsioni tarkibida biologik faol qoʻshimchalardan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Mazkur yoʻnalishda tizimli nazariy-amaliy ilmiy tadqiqotlar F.I.Yershov va E.B.Tazulaxova (1998), R.M.Xaitov, N.I.Ilina (2009) va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Respublikada Zn bilan kombinatsion shaklda timus peptidlarining *T*-limfotsitlar faolligiga taʼsiri B.A.Kaxorov, S.A.Rasulova tomonidan (2023) tahlil qilingan boʻlib, bunda timus ekstrakti organizmda infeksiyon yalligʻlanishga qarshi faollikka egaligi, mazkur ekstrakt tarkibidagi peptidlar *T*-limfotsitlar faolligini oshirishi qayd qilingan. Timus peptidlari asosida ishlab chiqilgan “Immunomodulin” preparati eksperimental va klinik sinovlardan ijobiy oʻtkazilgan. F.Y.Garib va boshqalar (2021) tomonidan timus peptidlari, immunomodulyator preparatlar infeksiyon kasalliklar patogenezi sharoitida *T*-limfotsitlar transformatsiyasi, interferon-induksiyasi orqali immun tizim aktivatsiyasini sezilarli darajada oshirishi tasdiqlangan².

Biroq hozirda dunyo miqyosida aholining ekologik havfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoji ortishi sharoitida chorvachilikda mahsuldorlikni oshirishda biostimulyator preparatlardan foydalanishning ilmiy asoslari toʻliq ishlab

² Garib F.Y., Kakhorov B.A., Khuzhamkulova M.Z., Kuchboev A.E. Effect of modified peptides from fetal thymus on the activity of *T*-lymphocytes and natural killers and interferonindual activity of sanogen and betaleukin // International Journal of Pharmaceutical Research. – 2021. – V.13(3). [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.ijpronline.com/ViewArticleDetail.aspx?ID=21538>. Дата обращения: 30.12.2025 г.

chiqilmagan. Ayniqsa, Respublikamiz miqyosida chorvachilik amaliyotida biostimulyator preparatlardan foydalanish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar soni juda kam bo‘lib, o‘z navbatida, mazkur yo‘nalishda nazariy-amaliy ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Yirik shoxli qoramollar ozuqasiga bioqo‘shimcha sifatida ishlatiladigan peptid bog‘lamga ega biostimulyatorlar yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi biostimulyator preparatlarning (qoramol jigari gidrolizati, solishtirish uchun “Timozin” immunomodulyator preparati) chorvachilik hayvonlarida gematologik ko‘rsatkichlar va immun tizimiga stimullovchi ta’sirini tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Timozin” preparati va qoramol jigari gidrolizatining CCl_4 -toksik gepatit orqali yuzaga keltirilgan ikkilamchi immunotanqislik modelida sichqon talog‘ida antitelo hosil qiluvchi hujayralar miqdori, qonning gematologik, biokimyoviy ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholash;

“Timozin” preparati va qoramol jigari gidrolizatining buzoqlarda immun tizimi funksional tarkibiga ta’sirini tahlil qilish;

“Timozin” preparati va qoramol jigari gidrolizatining ozuqa ratsioni tarkibini optimallashtirish asosida, buzoqlarda tana vazni ko‘rsatkichlariga ta’sirini tahlil qilish;

qoramol jigari gidrolizatining ozuqa ratsioni tarkibini optimallashtirish asosida, sigirlarda ozuqaning hazm bo‘lishi koeffitsiyenti, gumoral immun tizim funksional tarkibiga ta’siri tahlil qilish;

“Timozin” preparati va qoramol jigari gidrolizatining qo‘ylar qonining gematologik ko‘rsatkichlariga ta’sirini tahlil qilish;

olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan tashkil topgan.

Tadqiqotning obyekti “Timozin” preparati va qoramol jigari gidrolizati sigir, buzoqlar, qo‘ylar, laboratoriya sichqonlaridan tashkil topgan.

Tadqiqotning predmeti biostimulyator preparatlarning (qoramol jigari gidrolizati, solishtirish uchun “Timozin” preparati) chorvachilik hayvonlarida gematologik ko‘rsatkichlar va immun tizimiga stimullovchi ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda standart fiziologik, biokimyoviy tahlil usullaridan foydalanilgan. Olingan esperimental natijalarni matematik-statistik qayta ishlashda “Microsoft Excel 2007” (Microsoft, AQSh), OriginPro v. 8.5 SR1 (EULA, Northampton, MA 01060-4401, AQSh) matematik-statistik tahlil dastur paketlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoramol jigari gidrolizati ta’sirida sichqonlar talog‘ida CCl_4 -indusirlangan toksik gepatit fonida ikkilamchi immunotanqislik modelida antitelo hosil qiluvchi

hujayralarning miqdori, qonning gematologik, biokimyoviy ko'rsatkichlari optimallashtirish aniqlangan;

jigari gidrolizati ta'sirida (0,5% li eritma) buzoqlar qonidagi T-limfotsitlarning nazoratga nisbatan 14,66% ga, B-limfotsitlarning 14,57% ga, T-xelperlarning 8,86% ga, T-killer/supressorlarning 31,25%ga va neytrofillarning 12,18% ga ortish ko'rsatkichlari bilan organizm immun tizim faolligi oshganligi isbotlangan;

ozuqa ratsioni tarkibini qoramol jigari gidrolizati (12 g/sutka) asosida optimallashtirish orqali buzoqlar tana vazni ko'rsatkichini nazoratga nisbatan 16,70% ga oshishi va qonning immunologik, gematologik ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanishi isbotlangan;

ozuqa ratsioni tarkibini qoramol jigari gidrolizati (ozuqa tarkibiga nisbatan 3,4%) asosida optimallashtirish sigirlarda ozuqaning hazm bo'lish koeffitsientini yaxshilashi, quruq ($14,31 \pm 0,24\%$) va organik ($11,04 \pm 0,15\%$) moddalar hazm bo'lish darajasini oshirishi, gumoral immun tizim funksional tarkibi ko'rsatkichlarini yaxshilashi aniqlangan;

qoramol jigari gidrolizatining qo'ylar qonining gematologik ko'rsatkichlarini yaxshilashi, leykotsitlar sub-populyatsiyasining antigen eritrotsitlar bilan bog'lanish (rosette) hosil qilish darajasini oshirishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qoramol jigari gidrolizatidan inyeksiya shaklida foydalanish bo'yicha tavsiya etilgan optimal dozalar chorvachilik hayvonlarining gematologik ko'rsatkichlari va immun tizimiga yaqqol stimullovchi ta'sir ko'rsatishi aniqlangan;

qoramol jigari gidrolizatidan chorva mollarining ozuqa tarkibiga quruq qo'shimcha sifatida foydalanish chorva mollari mahsuldorligini oshirishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida foydalanilgan zamonaviy standart fiziologik, biokimyoviy eksperimental usullar va qurilmalar, shuningdek, olingan natijalarni matematik-statistik (nazorat, tajriba guruhlarida ko'rsatkichlar qiymatlariaro farqlanish Student *t*-testi bo'yicha hisoblangan, statistik ishonchlilik $p < 0,05$) dasturlari "Microsoft Excel 2007" (Microsoft, AQSh), OriginPro v. 8.5 SR1 (EULA, AQSh) qayta ishlanganligi, shuningdek, natijalarning respublika va xalqaro anjumanlardagi muhokama qilinganligi, nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalar biostimulyator preparatlarning chorvachilik hayvonlarida gematologik ko'rsatkichlar va immun tizimiga stimullovchi ta'siri asosida biostimulyator vositalarining yangi avlodini yaratishda nazariy bilimlar diapazonini kengaytirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati biostimulyator preparatlarning (qoramol jigari gidrolizati, solishtirish uchun "Timozin" immunomodulyator preparati) chorvachilik hayvonlarida gematologik ko'rsatkichlar va immun tizimiga yaqqol stimullovchi faollikka ega bo'lib, kelgusida biostimulyatorlardan foydalanib chorvachilik mahsuldorligini oshirishda ilmiy asos sifatida foydalanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Biostimulyator preparatlarning (qoramol jigari gidrolizati, solishtirish uchun “Timozin” immunomodulyator preparati) chorvachilik hayvonlarida gematologik ko‘rsatkichlar va immun tizimiga stimullovcchi ta’sirini tavsiflash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ishlab chiqilgan to‘qima tarkibli eritmaning chorva hayvonlari organizmiga miqdoriy ta’sir mexanizmlari, immun tizimiga stimullovcchi ta’siri, hayvonlardagi turli immunotanqislik holatlariga davolovchi ta’siri bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlardan O‘zMU huzuridagi Biofizika va biokimyo institutida 2021–2024-yillarda bajarilgan IZ-202103021/F-OT-2021-465 “Inson va hayvonlarning patologik holatlari va kasalliklarining *in vitro* va *in vivo* imitatsion modellarini ishlab chiqish” loyihasida surunkali qaytalanuvchi aftoz stomatitda yallig‘lanishni korreksiyalashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 16-sentabrdagi 02/17-2025-7-171-sonli ma’lumotnomasi). Natijada aftoz stomatitda yallig‘lanishni kamaytirishni ilmiy asoslash imkonini bergan;

qoramol jigari gidrolizatini chorva mollari immunologik ko‘rsatkichlariga ta’sir mexanizmlari bo‘yicha ma’lumotlardan O‘zMUda 2021–2023-yillarda bajarilgan A-OT-2021-380 “Yirik shoxli qoramollar ozuqasiga bioqo‘shimcha sifatida ishlatiladigan peptid bog‘lamga ega biostimulyatorlar yaratish” loyihasida biostimulyatorlar ta’sirida buzoqlarda *T*-, *B*-limfotsitlar miqdorini tahlil qilish, biologik faol qo‘shimchalar ishlab chiqish texnologiyasi elementlarini takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-oktabrdagi 02/17-2025-13-sonli ma’lumotnomasi). Natijada biostimulyatorlarning ta’sirini o‘rganish, baholash, immuno-gematologik tizimda farmakologik faollikning o‘ziga xosligi, immuntanqislikda hayvonlar, immun tizimining tiklanishini ilmiy asoslash imkonini bergan;

biostimulyatorlardan chorva mollarining ozuqa tarkibiga quruq qo‘shimcha va inyeksiya shaklida qo‘llash dozalari bo‘yicha tavsiyalardan Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumanida joylashgan “Azbo Bosh” fermer xo‘jaligida buzoqlarda mahsuldorlikni oshirish maqsadida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 15-oktabrdagi 05/06-02-1076-sonli ma’lumotnomasi). Natijada buzoqlarda faollik darajasi, tana vazni ortishiga erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 95 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot dolzarbligi, zaruriyati, maqsadi, vazifalari asoslangan, tadqiqot obyekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Chorvachilikda ozuqa ratsionida biostimulyatorlardan foydalanishning nazariy-amaliy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida chorvachilik hayvonlarida mahsuldorlikni oshirish, immun tizim faolligini mustahkamlash va stress-omillarga nisbatan tabiiy chidamlilikni kuchaytirishda ozuqa ratsioni tarkibiga biologik faol moddalar – biostimulyatorlarni kiritishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Ilmiy manbalar tahlili asosida biostimulyatorlar hayvon organizmida moddalar almashinuvini faollashtirishi, immun tizim, neyroendokrin va gumoral regulyatsiya tizimlariga kompleks taʼsir koʻrsatishi orqali goʻsht-sut mahsuldorligi koʻrsatkichlarini yaxshilashi ilmiy jihatdan asoslangan. Bobda immun tizimning organizm gomeostazini taʼminlashdagi oʻrni yoritilib, chorvachilik va veterinariya amaliyotida immunokorreksiyaning dolzarbligi taʼkidlangan. Ayniqsa, sintetik farmatsevtik preparatlardan uzoq muddatli foydalanishning salbiy oqibatlarini va ekologik xavfsiz mahsulot ishlab chiqarish nuqtai nazaridan tabiiy biogen stimulyatorlarga boʻlgan ehtiyoj asoslab berilgan. Oʻsimlik va hayvon toʻqimalari asosida tayyorlangan biostimulyatorlar nojoʻya taʼsirining minimal darajada ekanligi va keng farmakologik faollikka egaligi bilan ajralib turishi koʻrsatilgan.

Toʻqimalardan olingan biostimulyatorlardan foydalanish istiqbollari alohida yoritilib, Filatov usuli asosida tayyorlangan jigar, taloq, timus va boshqa organ toʻqimalari gidrolizatlari hayvonlarda oʻsish-rivojlanish jarayonlarini jadallashtirishi, immunitetni kuchaytirishi va mahsuldorlikni oshirishi haqidagi ilmiy maʼlumotlar umumlashtirilgan. Timus asosida olingan timozin, taktivin, timalin, timaktid va boshqa immunoregulyator peptidlarning T- va B-limfotsitlar faolligiga ijobiy taʼsiri keng yoritilgan. Shuningdek, qoramol jigari gidrolizatining kimyoviy tarkibi, aminokislotalarga boyligi, antioksidant, immunomodulyator va metabolik faolligi haqidagi zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilingan. Jigar gidrolizati organizmda limfotsitlar proliferatsiyasini kuchaytirishi, fermentlar faolligini optimallashtirishi va umumiy funksional holatni yaxshilashi bilan ajralib turishi qayd etilgan. Bob materiallari biologik toʻqimalar asosida tayyorlangan biostimulyatorlardan ozuqa ratsionida foydalanish chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish, immun tizimni mustahkamlash va ekologik xavfsiz goʻsht-sut mahsulotlari ishlab chiqarishning ilmiy-nazariy asoslarini belgilab berishi bilan ahamiyatli ekanligi xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning **“Biologik toʻqima asosida tayyorlangan biostimulyator preparatlarning taʼsir samaradorligini baholash usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida biologik toʻqima asosida tayyorlangan biostimulyator preparatlarning hayvon organizmiga taʼsir samaradorligini baholashga qaratilgan eksperimental

tadqiqotlarni o‘tkazish metodlari bayon etilgan. Tadqiqotlar 2023–2025-yillarda Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Odam va hayvonlar fiziologik kafedrasida, Immunofiziologiya laboratoriyasida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Ilg‘or texnologiyalar markazi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti, Molekulyar biologiya va biotexnologiya laboratoriyalarida va “Status Mubarro” MCHJ xo‘jaligi, “Azbo Bosh” ixtisoslashgan chorvachilik xo‘jaliklarida amalga oshirilgan. Eksperimentlarda qoramol jigari gidrolizati va timusdan ajratib olingan “Timozin” immunoregulyator preparati asosiy tadqiqot obyektlari sifatida tanlangan. Biostimulyator preparatlarning immunokorreksiyalovchi ta‘sirini baholash maqsadida sichqonlarda CCl_4 yordamida yuzaga keltirilgan toksik gepatit fonida ikkilamchi immun tanqislik eksperimental modeli ishlab chiqilgan. Eksperimentlar jarayonida biostimulyatorlarning hayvonlarda immun tizimi faolligiga, moddalar almashinuviga, qonning gematologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlariga, shuningdek, o‘shish-rivojlanish hamda mahsuldorlik ko‘rsatkichlariga ta‘siri kompleks tarzda baholangan. Immun tizim holati T- va B-limfotsitlar miqdori, qon zardobi tarkibida umumiy oqsillar hamda ayrim fermentlar faolligi ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, biostimulyator preparatlarning buzoqlar va qoramollarda ozuqaning o‘zlashtirilishi, organizmning umumiy funksional holati hamda turli stress-omillarga nisbatan chidamlilik darajasiga ta‘siri o‘rganilgan. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, tadqiqot natijalarining ishonchliligi ta‘minlangan.

“Timozin” preparati, qoramol jigari gidrolizatining ikkilamchi immunotanqislik modelida sichqonlar immun tizimi va gematologik ko‘rsatkichlariga ta‘siri” deb nomlangan uchinchi bob ikki bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda *“Timozin” preparati va qoramol jigari gidrolizatining (Biostimulyator preparat) CCl_4 -toksik gepatit orqali yuzaga keltirilgan ikkilamchi immunotanqislik modelida sichqon talog‘ida antitelo hosil qiluvchi hujayralar miqdoriga ta‘siri”*ni o‘rganish natijalari va tahlili keltirilgan. Dastlab sichqonlarda CCl_4 yordamida toksik gepatit orqali ikkilamchi immunotanqislik modeli shakllantirilgan. Eksperimental guruhlarda “Timozin” immunomodulyator preparati 1 mg/kg dozada, qoramol jigari gidrolizati esa biostimulyator preparat sifatida 0,2-1,0% li eritma shaklida qo‘llanilgan. Nazorat guruhidagi hayvonlarga fiziologik eritma (NaCl, 0,9%) inyeksiya qilingan. Preparatlar ta‘siri sichqon talog‘ida yadroga ega hujayralar hamda antitelo hosil qiluvchi hujayralar miqdorini aniqlash orqali baholangan. Olingan natijalar statistik ishonchlilik darajasi $p < 0,05-0,01$ shartlarida tahlil qilingan. Aniqlanishicha, CCl_4 -toksik gepatit sharoitida nazorat (sog‘lom) guruhiga nisbatan sichqon talog‘ida yadroga ega hujayralar umumiy soni kamaygan, antitelo hosil qiluvchi hujayralar miqdori esa keskin pasaygan. Xususan, antitelo hosil qiluvchi hujayralar soni nazorat guruhiga nisbatan bir necha marta kamayishi CCl_4 ta‘sirida organizmda og‘ir darajadagi immunitet tanqisligi yuzaga kelishini tasdiqlagan. “Timozin” preparati (1 mg/kg) qo‘llanilganda

immunotanqislik holatining ma'lum darajada kamayishi kuzatilib, taloqda yadroga ega hujayralar va antitelo hosil qiluvchi hujayralar miqdorining oshishi qayd etilgan (1-jadval).

1-jadval

**“Timozin” preparati va qoramol jigari gidrolizatining
(Biostimulyator preparat) CCl₄-toksik gepatit sharoitida yuzaga
keltirilgan ikkilamchi immunotanqislik modelida sichqon talog‘ida
antitelo hosil qiluvchi hujayralar miqdoriga ta’siri ($M \pm m$) ($n=70$)**


T/r	Tajriba guruhlar	Yadroga ega hujayralar soni ($\times 10^9/l$)		Antitelo hosil qiluvchi hujayralar miqdori ($\times 10^9/l$)	
		Umumiy soni	Nisbiy o‘zgarish	Umumiy soni	Nisbiy o‘zgarish
1.	Nazorat (sog‘lom)	185 \pm 32		5143 \pm 872	
2.	CCl ₄	169 \pm 45*	-1,1	578 \pm 103**	-8,9
3.	CCl ₄ +“Timozin” (1 mg/kg)	174 \pm 28	1,0	1851 \pm 300**	+3,2
4.	CCl ₄ + Biostimulyator (0,2%)	172 \pm 26*	+1,1	2623 \pm 130**	+4,7
5.	CCl ₄ + Biostimulyator (0,5%)	175 \pm 29	+1,2	2677 \pm 150**	+1,6
6.	CCl ₄ + Biostimulyator (0,7%)	178 \pm 38**	+1,1	2768 \pm 128**	+1,2
7.	CCl ₄ + Biostimulyator (1%)	180 \pm 22**	-1,1	2995 \pm 140**	+1,4

Izoh: * – yadroga ega hujayralar soni qiymatning nazorat (sog‘lom) guruhiga, shuningdek, antitelo hosil qiluvchi hujayralar miqdorining CCl₄ yordamida yuzaga keltirilgan ikkilamchi immunotanqislik holatidagi qiymatiga nisbatan statistik ishonchlilik darajasi $p < 0,05$, ** – $p < 0,01$ ($n=3-4$).

Qoramol jigari gidrolizatining turli konsentratsiyalarda, ayniqsa, 1% li eritma shaklida qo‘llanilishi natijasida mazkur ko‘rsatkichlar yanada yaxshilanib, nazorat guruhi qiymatlariga yaqinlashishi aniqlangan. Olingan natijalar “Timozin” immunomodulyator preparati hamda qoramol jigari gidrolizatining CCl₄ -toksik gepatit sharoitida yuzaga keltirilgan ikkilamchi immunotanqislik modelida sichqonlarda immun tizim funksional holatini optimallashtiruvchi ta’sirga ega ekanligini ko‘rsatgan.


Bobning ikkinchi bo‘limi “Timozin” preparati va qoramol jigari gidrolizatining CCl₄-toksik gepatit orqali yuzaga keltirilgan ikkilamchi immunotanqislik modelida sichqonlarda qonning gematologik, biokimyoviy ko‘rsatkichlariga ta’siri tahlili”ga bag‘ishlangan. Unda “Timozin” preparati va qoramol jigari gidrolizatining CCl₄ yordamida sichqonlarda yuzaga keltirilgan toksik gepatit sharoitida shakllanuvchi ikkilamchi immunotanqislik modelida qonning gematologik ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish natijalari keltirilgan. CCl₄ ta’sirida sichqonlar qonida leykotsitlar miqdori nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada kamaygan, bu holat immun tizimi faolligining susayishini tasdiqlaydi. “Timozin” preparati 0,2–1 mg/kg dozada qo‘llanilganda leykotsitlar miqdorining konsentratsiyaga bog‘liq holda ortishi kuzatilib, 1 mg/kg dozada mazkur ko‘rsatkich eng yuqori qiymatga yetgani aniqlangan (1-rasm). Shu bilan birga, eritrotsitlar miqdori CCl₄ ta’sirida hamda “Timozin” preparati qo‘llanilgan sharoitda sezilarli darajada

o'zgarishligi qayd etilgan. Qoramol jigari gidrolizati 0,5-1% li eritma shaklida qo'llanilganda ham leykotsitlar miqdorini dozaga bog'liq holda oshirishi, ayniqsa, 1% li eritma sharoitida mazkur ko'rsatkichning ortishi aniqlangan (2-rasm). Bunda eritrotsitlar miqdorida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagan.



1-rasm. "Timozin" preparatining sichqonlarda CCl₄-eksperimental toksik hepatit orqali yuzaga keltirilgan ikkilamchi immunotanqislik modelida sichqonlar qonining gematologik ko'rsatkichlariga ta'siri.

* – leykotsitlar va eritrotsitlar miqdori qiymati o'zgarishining statistik ishonchlilik darajasi $p < 0,05$; ** – $p < 0,01$ (n=3-4).



2-rasm. Qoramol jigari gidrolizatining (Biostimulyator preparat) sichqonlarda CCl₄-eksperimental toksik hepatit orqali yuzaga keltirilgan ikkilamchi immunotanqislik modelida sichqonlar qonining gematologik ko'rsatkichlariga ta'siri.

* – leykotsitlar va eritrotsitlar miqdori qiymati o'zgarishining statistik ishonchlilik darajasi $p < 0,05$; ** – $p < 0,01$ (n=3-4).

Olingan natijalar “Timozin” preparati va qoramol jigari gidrolizatining CCl₄-eksperimental toksik gepatit orqali yuzaga keltirilgan ikkilamchi immunotanqislik modelida leykopoez jarayonini faollashtiruvchi ta’sirga ega ekanligini, eritropoez jarayoniga esa sezilarli ta’sir ko’rsatmasligini tasdiqlaydi. Ushbu holat mazkur biostimulyator preparatlarning keyingi tajribalarda qoramollarda ta’sir samaradorligini o’rganish uchun asos bo’lib xizmat qilgan.

“**Biostimulyator preparatlarning chorvachilik hayvonlari immun tizimiga va gematologik ko’rsatkichlariga ta’siri**” deb nomlangan to’rtinchi bob beshta bo’limdan iborat bo’lib, birinchi bo’limda “*Timozin*” preparati va qoramol jigari gidrolizatini buzoqlarning gumoral immun tizim funksional tarkibiga ta’siri tahlili”ga bag’ishlangan. Unda “Timozin” preparati (1-5 mg/kg) va qoramol jigari gidrolizatining (0,2 va 0,5% li eritma) buzoqlar qoni tarkibidagi T-, B-limfotsitlar hamda ayrim immun hujayralari miqdoriga ta’siri o’rganilgan. Tadqiqotlar Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba fermer xo’jaligi sharoitida 30 sutka davomida o’tkazilgan. Nazorat va tajriba guruhlarida buzoqlar standart ozuqa ratsioni (sut/sut o’rnini bosuvchi aralashma, pichan, omuhta yem, suv) bilan oziqlantirilgan. Tajribalarda sog’lom, tana vazni $m=58-60$ kg, yoshi 30 ± 2 sutkalik buzoqlar tanlab olingan ($n=30$) “Timozin” preparati 5 mg/kg dozada qo’llanilganda buzoqlar qonida T-limfotsitlar va B-limfotsitlar miqdori nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada ortishi kuzatilgan. Shuningdek, mazkur preparat ta’sirida T-xelperlar, T-killer/supressorlar va neytrofillar miqdori ham oshgani qayd etilgan (2-jadval).

2-jadval

“Timozin” preparatining (1-5 mg/kg) buzoqlar qonida T-, B-limfotsitlar miqdoriga ta’siri tahlili ($n=30$)

Ko’rsatkichlar (109/l)	Nazorat (Fiziologik eritma)	Tajriba guruhlari (“Timozin” preparati)	
		I guruh (1 mg/kg)	II guruh (5 mg/kg)
T-limfotsitlar	30,8±4,26	32,1±1,25	36,5±4,31**
B-limfotsitlar	25,0±1,10	27,0±0,34	28,7±1,50
T-xelperlar	15,1±5,77	16,2±1,26	18,6±2,88*
T-killer/supressorlar	11,1±3,99	12,8±0,25	13,9±4,39
Neytrofillar	15,4±0,72	16,6±1,01	18,4±1,48*

Izoh: har bir guruhda $n=10$, “Timozin” preparati 30 sutka davomida 1, 5 ml/sutka dozada (kuniga bir mahal) inyeksiya qilingan. Nazorat guruhida ekvivalent konsentratsiyada buzoqlarning bo’yin sohasiga fiziologik eritma (NaCl, 0,9% li eritma) inyeksiya qilingan. * – qiymat o’zgarishining nazorat guruhiga nisbatan statistik ishonchlilik darajasi $p<0,05$, ** – $p<0,01$ ($n=3-4$).

Qoramol jigari gidrolizati 0,2 va 0,5% li eritma shaklida qo’llanilganda ham qondagi T- va B-limfotsitlar miqdorining ortishi aniqlanib, ayniqsa 0,5% li doza sharoitida mazkur ko’rsatkichlar nazorat guruhiga nisbatan yuqori qiymatlarga ega bo’lgan (3-jadval).

Bundan tashqari, T-xelperlar, T-killer/supressorlar va neytrofillar miqdorining ham oshishi qayd etilgan. Olingan natijalar “Timozin” preparati va qoramol jigari gidrolizatining buzoqlarda immun tizimi funksional faolligini oshiruvchi ta’sirga ega ekanligini ko‘rsatadi.

3-jadval

Qoramol jigar gidrolizatining buzoqlar qonida T-, B-limfotsitlar miqdoriga ta’siri tahlili (n=30)

Ko‘rsatkichlar ($\times 10^9/l$)	Nazorat (Fiziologik eritma)	Tajriba guruhleri (Qoramol jigar gidrolizati)	
		I guruh (0,2%)	II guruh (0,5%)
T-limfotsitlar	30,7 \pm 0,48	32,2 \pm 0,83	35,2 \pm 0,77**
B-limfotsitlar	25,4 \pm 0,30	27,9 \pm 0,46	29,1 \pm 0,35**
T-xelperlar	15,8 \pm 0,53	16,2 \pm 0,22	17,2 \pm 0,22
T-killer/supressorlar	11,2 \pm 0,17	12,8 \pm 0,15	14,7 \pm 0,51*
Neytrofillar	15,6 \pm 0,22	16,5 \pm 0,56	17,5 \pm 0,44*

Izoh: har bir guruhda n=10, qoramol jigar gidrolizati 30 sutka davomida 5 ml/sutka dozada (kuniga bir mahal) hayvonlar bo‘yin sohasiga inyeksiya qilingan. Nazorat guruhida ekvivalent konsentratsiyada buzoqlarning bo‘yin sohasiga fiziologik eritma (NaCl, 0,9% li eritma) inyeksiya qilingan.* – qiymat o‘zgarish dinamikasining nazorat guruhiga nisbatan statistik ishonchlilik darajasi $p < 0,05$, ** – $p < 0,01$ (n=3-4).

To‘rtinchi bobning ikkinchi bo‘limida “Timozin” preparati va qoramol jigari gidrolizatining ozuqa ratsioni tarkibini optimallashtirish sharoitida buzoqlarda tana vazni ko‘rsatkichlariga ta’siri” o‘rganilgan. Tajribalar sog‘lom buzoqlarda 90 sutka davomida optimallashtirilgan ozuqa ratsioni asosida amalga oshirilgan. “Timozin” preparati 1 mg/kg dozada qo‘llanilganda buzoqlar tana vazni nazorat guruhiga nisbatan ortib, qoramol jigari gidrolizati preparati ozuqa ratsioni tarkibiga 12 g/sutka miqdorida qo‘shilgan sharoitda esa tana vazni yanada yuqori qiymatga ega bo‘lgan (4-jadval).

4-jadval

Biostimulyator preparatlarning buzoqlarda tana vazni ko‘rsatkichiga ta’siri ($M \pm m$) tahlili (n=30)

T/r	Biostimulyator preparat	Tana vazni (kg)		O‘sish qiymati (sutka/kg)	Samaradorlik koeffitsiyenti (%)
		Nazorat	Tajriba		
1.	“Timozin” preparati	72 \pm 0,5	80 \pm 0,5	0,09	11,1
2.	Qoramol jigar gidrolizati		84 \pm 0,5		

Izoh: * – qiymat o‘zgarishining nazorat guruhiga nisbatan statistik ishonchlilik darajasi $p < 0,05$, ** – $p < 0,01$ (n=3-4).

Xususan, qoramol jigari gidrolizati qo‘llanilgan buzoqlarda tana vaznining nazoratga nisbatan sezilarli darajada ortishi qayd etilgan. Shuningdek, ozuqa ratsioni tarkibiga qoramol jigari gidrolizati qo‘shilgan buzoqlarda jun qoplaminig o‘zgarishi kuzatilgan. Olingan natijalar biostimulyator preparatlarni ozuqa ratsioni tarkibiga qo‘shish orqali buzoqlarda tana vazni o‘shishini ta‘minlash va ozuqa ratsionini optimallashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatagan.

Bobning uchinchi bo‘limi “*Qoramol jigari gidrolizatining ozuqa ratsioni tarkibini optimallashtirish asosida, sigirlarda ozuqaning hazm bo‘lish koeffitsiyenti tahlili*” deb nomlangan. Tadqiqotga jalb qilingan sigirlar uchun ozuqa ratsioni tarkibi mavjud adabiyot ma‘lumotlari asosida ishlab chiqilgan va makkajo‘hori silosi tarkibida quruq modda ulushi o‘rtacha 38,4% (Trinacty et al., 2005) deb belgilangan. Quritilgan shaklda qoramol jigari gidrolizati ozuqa ratsioniga 3,4% ulushda qo‘shilgan. Ozuqa tarkibining hazm bo‘lish koeffitsiyenti quruq va organik moddalar bo‘yicha baholangan. Olingan natijalarga ko‘ra, qoramol jigari gidrolizati qo‘shilgan guruhda quruq moddalarning hazm bo‘lish darajasi nazoratga nisbatan sezilarli darajada oshgan ($60,8 \pm 0,88 \rightarrow 69,5 \pm 0,74\%$). Organik moddalarning hazm bo‘lish koeffitsiyenti ham nazoratga nisbatan ko‘tarilganligi ($65,2 \pm 1,01 \rightarrow 72,4 \pm 0,96\%$) aniqlangan (5-jadval).

5-jadval

Sigirlarda ozuqa tarkibining hazm bo‘lish koeffitsiyenti (%) ($M \pm m$) ($n=7$)

T/r	Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhlari	
		Nazorat	Qoramol jigari gidrolizati (ozuqa tarkibiga nisbatan 3,4%)
1.	Quruq moddalar	$60,8 \pm 0,88$	$69,5 \pm 0,74^{**}$
2.	Organik moddalar	$65,2 \pm 1,01$	$72,4 \pm 0,96^*$

Izoh: * – qiymat o‘zgarishining nazorat guruhiga nisbatan statistik ishonchlik darajasi $p < 0,05$, ** – $p < 0,01$ ($n=3-4$).

Natijalar sigirlar ozuqa ratsioni tarkibiga qoramol jigari gidrolizatini qo‘shish orqali ozuqaning hazm bo‘lish darajasini sezilarli darajada oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Bobning to‘rtinchi bo‘limida “*Qoramol jigari gidrolizati va “Timozin” immunostimulyator preparati ta‘sirining sigirlarda gumoral immun tizimiga ta‘siri*” o‘rganilgan. Sigirlar ozuqa ratsioni TarkibΦiga quritilgan shaklda qoramol jigari gidrolizati (ozuqa tarkibiga nisbatan 3,4%) qo‘shilganda qonning gematologik ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Olingan natijalarga ko‘ra, eritrotsitlar miqdori nazorat guruhiga nisbatan sezilarli o‘zgarmasligi ($6,90 \pm 0,44 \rightarrow 6,98 \pm 0,44$), leykotsitlar miqdori 13,84% ga ($9,32 \pm 1,02 \rightarrow 10,61 \pm 0,88$), gemogloblin va gemotokrit ko‘rsatkichlari esa mos ravishda 2,94% va 156,34% ga ortishi ($95,2 \pm 1,58 \rightarrow 98,0 \pm 1,73$; $31,02 \pm 1,04 \rightarrow 35,78 \pm 1,42$) aniqlangan (6-jadval).

**Sigirlarda ozuqa ratsioni tarkibiga quritilgan shaklda
qoramol jigari gidrolizati qo‘shilganda qonning gematologik
ko‘rsatkichlari tahlili ($M\pm m$)**

T/r	Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhlari	
		Nazorat	Qoramol jigari gidrolizati (ozuqa tarkibiga nisbatan 3,4%)
1.	Eritrotsitlar ($10^{12}/l$)	6,90±0,44	6,98±0,44
2.	Leykotsitlar ($10^9/l$)	9,32±1,02	10,61±0,88
3.	Gemoglobin (g/l)	95,2±1,58	98,0± 1,73*
4.	Gemotokrit (%)	31,02±1,04	35,78±1,42**

Izoh: * – qiymat o‘zgarishining nazorat guruhiga nisbatan statistik ishonchlik darajasi $p<0,05$, ** – $p<0,01$ ($n=3-4$).

Tadqiqotning keyingi bosqichlarida “Timozin” immunostimulyator preparati va qoramol jigari gidrolizati sigirlarda limfotsitlar subpopulyatsiyasi miqdoriga ta’siri tahlil qilingan. Nazorat va fiziologik eritmada (NaCl, 0,9%) leykotsitlar subpopulyatsiyalari miqdori sezilarli o‘zgarmagan, holatda “Timozin” preparati ta’sirida tE-ROK ($31,0\pm 1,26 \rightarrow 37,0\pm 2,19$), bE-ROK ($11,2\pm 0,17 \rightarrow 14,8\pm 0,18$), rE-ROK ($15,6\pm 0,22 \rightarrow 17,9\pm 0,24$), vE-ROK ($15,8\pm 0,53 \rightarrow 17,5\pm 0,12$), EM-ROK ($26,4\pm 0,30 \rightarrow 32,0\pm 0,15$) ko‘rsatkichlari sezilarli darajada ortishi aniqlangan (7-jadval).

**“Timozin” immunostimulyator preparatining sigirlar qonida limfotsitlar
sub-populyatsiyasi miqdoriga ta’siri tahlili ($M\pm m$)**

T/r	Ko‘rsatkichlar	Nazorat	Tajriba guruhlari	
			Fiziologik eritma	“Timozin” preparati (1 mg/kg)
1.	tE-ROK ($\times 10^9$ hujayra/l)	30,7±0,48	31,0±1,26	37,0±2,19**
2.	bE-ROK ($\times 10^9$ hujayra/l)	11,1±3,99	11,2±0,17	14,8±0,18*
3.	rE-ROK ($\times 10^9$ hujayra/l)	15,4±0,72	15,6±0,22	17,9±0,24*
4.	vE-ROK ($\times 10^9$ hujayra/l)	15,1±0,73	15,8±0,53	17,5±0,12*
5.	EM-ROK ($\times 10^9$ hujayra/l)	26,6±0,10	26,4±0,30	32,0±0,15**

Izoh: * – qiymat o‘zgarishining nazorat guruhiga nisbatan statistik ishonchlik darajasi $p<0,05$, ** – $p<0,01$ ($n=3-4$).

Shuningdek, qoramol jigari gidrolizati ta’sirida ham tE-ROK ($31,0\pm 1,26 \rightarrow 36,5\pm 4,31$), bE-ROK ($11,2\pm 0,17 \rightarrow 14,9\pm 4,39$), EM-ROK ($26,4\pm 0,30 \rightarrow 29,7\pm 0,36$) ko‘rsatkichlari sezilarli darajada ortishi qayd etilgan (8-jadval).

Qoramol jigari gidrolizatining sigirlar qonida limfotsitlar sub-populyatsiyasi miqdoriga ta'siri tahlili ($M \pm m$) ($n=7$)

T/r	Ko'rsatkichlar	Nazorat	Tajriba guruhlari			
			Fiziologik eritma	I	II	III
